Bugun Mahmudxo‘ja Bebudiy tavallud topgan kun. Ulug‘ jadid 1875-yil 19-yanvarda dunyoga kelgan

https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/manaviyat/ajdodlarga-ehtirom/mahmudxoja-behbudiy-tavallud-topgan-kun

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo‘sag‘asida Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatchiligining eng yirik namoyandasi, yangi davr o‘zbek madaniyatining asoschisidir. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardori, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist. U tariximizning g‘oyat og‘ir va murakkab bir davrida yashadi. XVI asrdan boshlangan inqiroz va turg‘unlik, o‘zaro janjal, mahalliy urug‘chilik nizolari millatni holdan toydirgan, imkondan foydalanib o‘lkani zabt etgan Rusiya zo‘r berib, uni turg‘un va tutqun saqlashga urinardi. Mana shunday bir sharoitda Vatanni butunlay yo‘q bo‘lish xavfidan saqlab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotta boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq fidoyilar zimmasiga tushdi.

Turkistonda “Usuli jadid”, “Usuli savtiya” nomlari bilan shuhrat topgan yangi maktabni shular tashkil qilib, shular birinchi bo‘lib zamonaviy maktab g‘oyasini ilgari surdilar. Ular o‘z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiklolga tayyorladilar, she’r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdirishga urindilar. Rusiya qonunlari imkon bergan darajada Turkiston musulmonlarining sha’nu shavkatini himoya qildilar, inqilob yillarida esa mustaqillik bayrog‘ini baland ko‘tardilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy mana shu Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, boshlab beruvchisi edi. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida, ruhoniy oilasida dunyoga kelgan.